

KORPUS LINGVISTIKASI ASOSIDA ZAMONAVIY LEKSIKOGRAFIYANING SHAKLLANISHI

Normamatova Shaxzoda

O'zMU Xorijiy til va adabiyoti (ingliz) yo'nalishi
1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada korpus lingvistikasi yondashuvining zamonaviy leksikografiyadagi ahamiyati, amaliy qo'llanilishi va lug'at tuzish jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: leksikografiya, ensiklopedik lug'at, lingvistik lug'at, imloviy lug'at, izohli lug'at, BNC, Oxford English Dictionary

Bugungi kunda tilshunoslikning deyarli barcha yo'nalishlarida texnologik vositalar va korpus metodlariga asoslangan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, leksikografiya — ya'ni lug'at tuzish san'ati va amaliyoti — ham bu jarayondan chetda qolmayapti. An'anaviy leksikografiyada asosiy ma'lumotlar asosan lingvistlarning shaxsiy kuzatuvlari, tajribalari yoki mavjud matnlardan olinayotgan bo'lsa, zamonaviy korpus lingvistikasi ushbu jarayonni tizimlashtirish, ob'ektivlashtirish va avtomatlashtirish imkonini bermoqda.

Leksikografiya atamasi grekcha “leksikos” va “grapho” unsurlaridan tarkib topgan, “so'z yozmoq” ma'nosini bildirgan [1]. Leksikografiya tilshunoslikning lug'at va lug'atchilik haqida so'z yurituvchi sohasidir. Bu lingvistik tarmoqning asosiy birligi *lug'at*dir. “Lug'at” atamasi arab tilidan olingan. U ko'p ma'noli bo'lib, til, lahja, sheva: so'z, ibora ma'nolarini bildiradi. Hozirgi vaqtda bu so'z lingvistik atama sifatida ikki ma'noda ishlatiladi: 1) muayyan tilda, uning hududiy yoki ijtimoiy lahjasida mavjud bo'lgan, shuningdek, u yoki bu yozuvchi asarlarida uchraydigan so'zlar yig'indisi, ya'ni leksika; 2) so'zlar (yoki morfemalar, frazemalar, so'z birikmalari va sh.k.) muayyan tartibda (alifboli, uyali, mavzuli) joylashtirilgan, tavsiflanuvchi birliklar, ularning kelib chiqishi, ma'nolari yozilishi (imlosi), talaffuzi, uslubiy mansubligi, boshqa tillarga tarjimai haqida ma'lumotlar jamlangan kitob.

Leksikografiya fanining asosiy ob'ekti – bu lug'atlardir. Lug'at deganda, til birliklarini tartibli tarzda izohlovchi, tushuntiruvchi yoki tarjima qiluvchi maxsus ilmiy-ma'lumotnoma tushuniladi. Lug'atlar tilshunoslikda, tarjimashunoslikda, terminologiyada, ta'lim jarayonida va boshqa ko'plab sohalarda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Lug'atlar maqsad va mazmuniga ko'ra turli turlarga ajratiladi.

Lug'atlar ko'zlangan maqsadga ko'ra dastlab ikki tipga bo'linadi: 1. Ensiklopedik (qomusiy) lug'atlar. 2. Lisoniy (lingvistik) lug'atlar [2].

1. **Ensiklopedik lug'atlarda** tabiat va jamiyatdagi narsa-hodisalar, tarixiy voqea-jarayonlar, buyuk shaxslar, ilm-fandagi kashfiyotlar, davlatlar, shaharlar haqida ma'lumot beriladi. Demak, bu tipdagi lug'atlarda asosiy e'tibor tildagi so'zlarga emas, balki shu so'zlar yoki so'z birikmalari vositasida nomlangan hodisalarga qaratiladi.

Lisoniy lug'atlarda so'z ma'nolari, imlosi, talaffuzi, iboralar (frazemalar), xalq maqollari, xullas, til birliklari va filologik tushunchalarga oid ma'lumotlar beriladi. Demak, lisoniy lug'atlarda til va nutq birliklari, til kategoriyalari haqida ma'lumot berish, maqol va matal kabi janr boyliklarini to'plash maqsad qilinadi. Lingvistik lug'atlar, eng avvalo, **o'z til lug'atlari** va **tarjima lug'atlari** kabi ikki guruhga ajraladi. **Tarjima lug'atlari** bir tilga xos lisoniy birliklarni ikkinchi tilga o'giradi: unda bir tilning lug'aviy birliklariga boshqa tilning ularga ma'no va vazifada mushtarak variantlari beriladi. O'z tilga tarjima lug'atlarining namunalari sifatida "Nemischa

o'zbekcha lug'at" (Y.R.Benyaminov, T.Z.Mirsoatov. Toshkent, 1964), "Inglizcha-o'zbekcha lug'at" (J.B.Bo'ronov, X.R.Rahmonberdiyev, S.X.Barnoxo'jayeva, E.A.Anisimov. Toshkent, 1968) larni misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Umumiy lug'atlar ham bir necha xildir. Ularga quyidagilar kiradi:

1. **Izohli lug'atlar.** Lug'atning bunday turlarida so'zlarning ma'nolari, qo'llanish sohasi va darajasi, fonetik va grammatik xususiyatlari ko'rsatib beriladi.

2. **Imlo lug'ati.** Imlo lug'atida so'z va atamalarning adabiy til me'yoriga muvofiq to'g'ri yozilishi beriladi. O'zbek tilshunosligida lug'atning bu turini yaratishga o'tgan asrning qirqinchi yillaridan kirishilgan.

Azim Hojiyev "O'zbek tilining izohli lug'ati"ni tuzish printsiplarini ishlab chiqar ekan, so'zlarni izohlashning olti qatlamini ochib beradi. Bular: bosh so'z; lug'at maqolasining bosh so'zdan keying komponenti, bosh so'zning etimologiyasi

haqidagi ma'lumot; lug'at maqolasining etimologik ma'lumotdan keyingi bosh so'zga uning ma'nosi oldidan beriladigan grammatik, uslubiy va havola etuvchi qaydlar; izohlanuvchi birliklar (bosh so'z va turg'un iboralar) ma'nosini belgilash va qayd etish; lug'at maqolasining eng asosiy qismi izohlanuvchi birliklar ma'nolariga beriladigan izoh; lug'at maqolasining so'nggi komponenti izohlanuvchi birlik ma'nosi izohidan keyin beriladigan illyustrativ misollar [3].

An'anaviy leksikografik metodlar haqida:

An'anaviy leksikografik metodlar deganda lug'at tuzishda uzoq tarixiy davrlardan beri shakllanib kelgan, klassik tilshunoslik asoslariga tayanadigan usullar tushuniladi. Bu metodlar lug'atni tuzish jarayonida asosiy yo'riqnoma, qat'iy tartib va ilmiy aniqlikka tayanadi. Ular, asosan, qo'lda bajarilgan bo'lib, matnni tahlil qilish, so'zlarni tanlash, ularni tartibga solish, ularning ma'nolarini izohlash va namunalarni keltirish bilan bog'liq. An'anaviy metodlarda eng muhim bosqichlardan biri – bu lug'atga

kiritiladigan soʻzlarni tanlashdir. Bu jarayonda soʻzlarning ishlatilish chastotasi, ularning zamonaviyligi, funksional qiymati va til tizimidagi oʻrni eʼtiborga olinadi. Leksik birliklar koʻpincha yozma manbalardan yoki ogʻzaki nutq namunalaridan tanlab olinadi. Shu asosda lugʻatning umumiy hajmi, uni foydalanuvchi auditoriya (masalan, maktab oʻquvchilari, ilmiy xodimlar, til oʻrganuvchilar) aniqlanadi. Anʼanaviy metodlarda har bir soʻz uchun adabiy matnlardan yoki ogʻzaki nutqdan olingan kontekstual misollar keltiriladi. Bu misollar orqali soʻzning ishlatilish uslubi, emosional ranggi va sintaktik imkoniyatlari namoyish etiladi. Masalan, “koʻz” soʻzining “*koʻzim tushdi*”, “*koʻz oʻngimda*” kabi iboralardagi ishlatilish shakllari misol tariqasida keltiriladi.

Soʻnggi yillarda leksikografiya sohasida sezilarli oʻzgarishlar yuz berdi. Anʼanaviy metodlar bilan bir qatorda, zamonaviy texnologiyalar va tilshunoslikda ilgʻor yondashuvlar asosida korpus lingvistikasi keng qoʻllanila boshlandi. Ayniqsa, korpus asosida lugʻat tuzish zamonaviy leksikografiyaning asosiy tendensiyalaridan biriga aylandi. Bu metod nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki til birliklarini real til muhitida kengroq va chuqurroq tahlil qilish imkonini ham beradi. Korpus asosida lugʻat tuzishning bosqichlariga toʻxtaladigan boʻlsak, lugʻat tuzishdan avval til korpusi yaratiladi. Bu korpus yozma va ogʻzaki nutq namunalarini oʻz ichiga oladi. Matnlar ijtimoiy, siyosiy, ilmiy, publitsistik, badiiy, texnik va boshqa janrlardan olinadi. Korpus muvozanatli (balansli) boʻlishi uchun har bir turdagi matndan yetarlicha namunalar kiritiladi. Chastotali tahlil jarayonida esa korpusdagi barcha soʻzlar avtomatik ravishda maxsus dasturlar yordamida sanab chiqiladi. Natijada chastotali roʻyxat (yaʼni, eng koʻp ishlatiladigan soʻzlar roʻyxati) tuziladi. Bu bosqich lugʻatga qaysi soʻzlar kiritilishi kerakligini aniqlashda muhim oʻrin tutadi. Soʻzning real til muhitida necha marta va qanday kontekstda ishlatilgani asosida uning ahamiyati belgilanadi. Bunga misol tariqasida British National Corpus (BNC) asosida yaratilgan Oxford English Dictionary – ingliz tilining eng mukammal zamonaviy korpus lugʻatini keltirishimiz mumkin.

Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki, Korpus lingvistikasi zamonaviy leksikografiyaning shakllanishida hal qiluvchi rol oʻynayapti. Real til materiallari asosida tuzilgan korpuslar lugʻat tuzish jarayonini ilmiylik, obyektivlik va amaliylik bilan boyitdi. Endilikda soʻzlarning maʼnosi, qoʻllanish doirasi, uslubiy xususiyatlari va kontekstdagi vazifalari aniq statistik maʼlumotlarga asoslanib tavsiflanmoqda. Korpus texnologiyalari yordamida leksikografik tahlil tez, chuqur va keng qamrovli boʻlib bormoqda. Bu esa lugʻatlarning faqatgina soʻz maʼnolarini emas, balki ularning tirik til ichidagi haqiqiy ishlatilishlarini aks ettirishiga zamin yaratmoqda. Shuningdek, korpus asosida tuzilgan lugʻatlar til oʻrganuvchilar, tarjimonlar, adabiyotshunoslar va tilshunoslar uchun ishonchli va zamonaviy vositaga aylanmoqda. Umuman olganda, korpus lingvistikasi zamonaviy leksikografiyaning ilmiy, texnologik va metodik

asoslarini yangilab, uni xalqaro darajadagi til tadqiqotlariga moslashtirmoqda. Bu yondashuv zamonaviy tilshunoslikda lugʻat tuzish madaniyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduvali Berdialiyev, Ixtiyor Ermatov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Turon- Iqbol nashriyoti. T., 2021. (177 b).
2. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Talqin nashriyoti. T., 2005. (227 b).
3. Sultonbek Normamatov. Leksikografiya asoslari. T., 2020. (15 b).

